



YOZUVNING TARIXIY AHAMIYATI

Lobar Jumaqulova,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotation: Maqolada yozuv va uning kelib chiqishi haqida bat afsil ma'lumotlar berilgan. Yozuvning turlari yozuvning rivojlanish bosqichlarida tahlil qilinadi. Yozuvning insoniyat tarixidagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Yozuv insoniyat taraqqiyotining asosi bo'lib, u madaniy va ilmiy merosning uzluksiz saqlanishiga xizmat qiladi. Maqola davomida yozuvning ilk shakllari, turli tsivilizatsiyalarda qo'llanilgan yozuv tizimlari hamda yozuvning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqidagi muhim jihatlar ko'rib chiqiladi. Mazkur izlanish yozuvning tarixiy ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Ключевые слова: yozuv, mixxat yozushi, piktografik yozuv, shakl.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПИСЬМЕННОСТИ

Аннотация: В статье подробно рассказывается о письменности и ее происхождении. Анализируются виды письма по этапам развития письма. Широко освещаются место и значение письменности в истории человечества. Письменность является основой развития человечества, она служит непрерывному сохранению культурного и научного наследия. В статье рассматриваются первые формы письменности, системы письма, использовавшиеся в разных цивилизациях, а также важные аспекты влияния письменности на развитие общества. Данное исследование поможет понять историческое значение произведения.

Ключевые слова: письмо, клинопись, пиктографическое письмо, рис.

HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE WRITING



Annotation: The article details the writing and its origins. Types of writing are analyzed in stages of writing development. The place and importance of writing in the history of mankind is widely covered. Writing is the basis of human development, and it serves the continuous preservation of cultural and scientific heritage. The first forms of writing, writing systems used in different civilizations, and important aspects of the impact of writing on the development of society are considered in the article. This research will help to understand the historical significance of the writing.

Keywords: writing, cuneiform writing, pictographic writing, fig.

Kirish. Kishilik jamiyatida insonlar o‘zlarining ma’lum bir ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zlariga kerakli bo‘lgan narsani yaratishga majbur bo‘ladilar. Qadimda shu ehtiyojlar tufayli yozuv paydo bo‘lgan. Yozuvning paydo bo‘lishi tilning paydo bo‘lishichalik uzoq tarixga ega emas. Olimlarning ta’kidlashicha, yozuvning tarixi taxminan o‘n besh yildan ko‘p emas. Ayrim tillarning haligacha o‘z yozuvi yo‘q. Masalan, Amerika qit’asining mahalliy aholilarida o‘zlarining yozuvi yo‘q. Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uning madaniyatining yuqori saviyaga ko‘tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirishga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishi bilan bog‘liq. Jamiyatda kitob, gazeta, jumal va umuman matbuotning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati yuksak darajaga ko’tarila borayotgan hozirgi paytda yozuvning, yozma nutqning roli ham o’sib, ta’sir doirasi kengayib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Yozuv paydo bo‘lgandan beri bizga misli ko‘rilmagan imkoniyatlar ochib berildi. Yozuvni taraqqiyotning kashfiyotchisi desak ham bo‘ladi. Agar yozuv bo’limganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari etib kelmagan bo’lar edi. Homer, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Nizomiy, Ulug’bek, Navoiy, Bobur, Pushkin kabi buyuk siymolarning ajoyib fikrlaridan bahramand bo’la olmas edik. Yozuv insoniyat hayotida juda katta rol o‘ynaydi. Dunyoning har qanday burchagida, har qanday sohada yozuvdan foydalilaniladi.



Markaziy Osiyoda eng qadimgi davrda yashagan qabilalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar grek, eron, xitoy tarixchilari va yozuvchilari asarlarida, toshlarda bitib qoldirilgan yozuv va boshqa materiallarda bayon qilingan. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimda turli yozuv sistemasidan foydalanib kelgan. O'zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatib kelingan asosiy yozuv sistemasini fonografik, ya'ni tovush yozushi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O'zbek xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy, yunon, sug'd, xorazm, qo'shan, efialit, pahlaviy, suriya, hind, uyg'ur, arab yozushi kabi bir qancha yozuvdan foydalangan. O'rxun-runik yozuvini boshqa turkiy xalqlar bilan birgalikda ijod qilgan. Sobiq sho'ro davrida boshqa Sharq xalqlari bilan bir qatorda avval lotin, keyinchalik esa rus grafikasiga asoslangan yozuvni qabul qilish o'zbek xalqi hayotida o'ziga xos hodisa bo'ldi.

Asosiy qism. Yozuv asrlar oshib turli bosqichlardan o'tib kelmoqda. Olimlar yozuvning paydo bo'lishi haqida o'zlarining bir qancha asarlarini yozishgan. Masalan, Abu Nasr Farobiy Aristotelning "Ritorika" asariga yozgan sharhida yozuv tizimi, uslubiyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Bundan tashqari olim "Yozuv san'ati haqida kitob" nomli asarini ham yozgan. Abu Rayhon Beruniy tilshunoslikning juda ko'p masalalari bilan birgalikda yozuv haqida ham atroficha fikr yuritadi.

Shuningdek, yozuv o'zining taraqqiyotida turli xil bosqichlarni bosib o'tgan. Dastlab yozuv bo'lmagan davrlarda insonlar xotira bilan ko'proq ishlashgan. Lekin bu faqat biror narsa yoki ish harakatni eslatardi holos. Axborot uzatish uchun esa hech narsa yo'q edi. Ular biror bir buyumga shakl berish orqali ma'lumotlarni bir biriga yetkazishgan. Buyumga ma'no biriktirishning bu usuli "buyumli yozuv" deb atalgan. Shundan boshlab, ya' ni, yozuv taraqqiyotining boshqa bosqichlarida uning turli xil turlari kelib chiqqan. Bundan ko'rinish turibdiki, har bir bosqich bu bittadan yozuv turi degani. Endi biz yozuvning turlari haqida so'z yuritsak. Har bir yozuv bu oz davrida insoniyatning ehtiyojlarini qondira olgan. Demak, o'tmishda yozuvlar hali paydo bolmagan davrlarda odamlar bazi hodisalarni boshqalarga yetkazish uchun rasmlardan foydalanishgan. Turli xil jonli va jonsiz narsalarning rasmini chiziz orqali



oz maqsadlarini tushintirib berishgan. Bunday yozuv piktografik yozuv deb nomlangan. Bu yozuvning birliklarini piktogrammalar deb atashgan. Yozuvning taraqqiyot bosqichlarida piktografik yozuv ortda qolib, uning davomida yangi yangi yozuvlar paydo bo'la boshlagan. Piktografik yozuvni ortda qolgan deb ham aytolmaymiz, chunki, bu yozuv asta-asta rivojlanib, ideografik yozuv ga aylangan. Ba'zi olimlar ushbu yozuv turini logografik yozuv deb ham atashadi, chunki bundagi so'zlar faqat narsalarni aks ettirmay, tildagi so'zlarni ham ifodalaydi. Tildagi har bir so'z o'z simvoliga egadir. Idiografik yozuvning birligini idiogramma deb yuritishadi.

Fonografik yozuv paydo bo'lishi natijasida harf - yozuv davri boshlandi. Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to'rtdan uch qismi mana shu yozuvdan foydalanishadi. Harf tovush yozuvi hozirgi vaqtda, asosan, to'rtta asosiy yozuv sistemasidan iborat. Lotin yozuvidan jahon aholisining 30%, slavyan-krillitsa yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

O'rxun yozuvi bilan deyarli bir davrda o'zbek xalqining ajdodlari uyg'ur yozuvidan ham foydalanganlar. Uyg'ur yozuvi so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u vatanimizda, XV asrgacha iste'moda bo'lган. Mashhur "Qutadg'u_bilik" dostonining bir nusxasi, "Hibatul haqoyiq" dostonining bir necha nusxasi, Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining bir nusxasi, hatto XV asrda ko'chirilib bir to'plamga kiritilgan Lutfiyoning bir necha g'azallari uyg'ur yozuvida yozilgan.

Ajdodlarimiz qo'llab kelgan yozuvlar orasida eng ko'p ishlatilgan yozuv arab alifbosi bilan bog'liq. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi VIII asrdan boshlab qo'llanila boshlanadi. Deyarli 800 yil mobaynida bu yozuv uyg'ur yozuvi bilan yonmayon ishlatilib kelindi. Ammo XVI asrdan, ya'ni shayboniylar hukmronligi davridan uyg'ur yozuvi iste'moldan chiqib ketdi. Arab yozuvida bizning eng nodir yozma yodgorliklarimiz, ming yillik tariximiz bitilgan bo'lsa-da, bu yozuv o'zbek tili fonetikasi va tabiatiga mos kelmas edi. Shuning uchun jadidlar XX asrning boshlaridayoq eski o'zbek yozuvini isloh qilish, uni o'zbek tiliga moslashtirish uchun harakat qildilar. 1921-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'tish harakati boshlandi. 1929-yildan boshlab o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalana boshladi. Lotin alifbosi asosidagi ilk o'zbek yozuvi o'zbek



adabiy tili me'yorlari aniq belgilanmagan davrda qabul qilingan edi va unda ayrim noqulayliklar bor edi. Oradan ko'p o'tmay, sobiq sho'ro tuzumida millatlarni tenglashtirish, millatlararo farqlarni yo'qotish harakati boshlandi, rus tilining, ta'siri kuchaydi. Natijada, 1940- yildan boshlab o'zbek xalqi kirill (rus) alifbosini asosidagi yozuvga o'tdi. Kirill alifbosining o'zbek tili xususiyatlarini ifodalash uchun qulay emasligi haqida mutaxassislar uzoq vaqt munozara qildilar, imloni takomillashtirish, hatto kirill alifbosidan voz kechish haqidagi fikrlarni ilgari surdilar. O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahonga yuz tutayotganligi ilg'or kommunikatsiya tizimiga jadal kirishini taqozo etmoqda. Jahondagi ilg'or texnologiya va fan yutuqlaridan samarali foydalana olish mamlakatimiz uchun muhimdir. Hozir dunyoda eng keng tarqalgan vozuv lotin yozuvidir, bu yozuvdan dunyo aholisining 30% i foydalanadi.

Bugungi kundagi zamonaviy yozuvlardan biri bu kozlari kor insonlar uchun yozuv hisoblanadi. Bu yozuv oz ichiga Brayl alifbosini oladi. Brayl alifbosi - bu bo'rtma harflardan iborat shriftlar. Bu alifbo L.Brayl tomonidan yaratilgan. Brayl shrift asosida 6 nuqtani turli vaziyatlarda qo'llash yotadi. Lekin ixtirochi bu alifboga lotin tilidagi harflar ketma ketligini asos qilib olgan. Bu alifbo bo'yicha o'zbek yozuvchilaridan A. Qodiriy ("O'tgan kunlar") va V. Gafurov ("Vafodor") asarlari nashr qilingan. Ko'zi ojizlar uchun hozirgi kunda bu yozuv tufayli juda ko'plab kitoblar shu yozuv bo'yicha nashr qilinyapti. Nafaqat kitoblar, balki, elektron ma'lumotlar ham ular uchun maxsus ishlab chiqilyapti. Bu ular uchun juda ham katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Xulosa. Til va yozuv insoniyat tamaddunida alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda har ikki hodisani bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Butun bir jamiyatning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy hodisa bo'lsa, yozuv millatning ruhiy-ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omildir. U ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy ko'prik vazifasini bajaradi. Yozuvning barqarorligi ko'p jihatdan kishilik jamiyati rivojiga borib taqaladi. Shunday ekan, uning sofligi va rivoji uchun qayg'urish, xalqning savodxonligini oshirish uchun harakat qilish har bir fuqaroning burchidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at ma’lumotnomasi. T. 1990.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. T.2009
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. H.Jamolxonov. T.2013
4. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2007.
5. *Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.*